



# JAMOAT SALOMATLIGI

Farg'on a'na jamoat salomatligi tibbiyot institutining ijtimoiy-tibbiy gazetasi



## Assalom bahor!

### Ayol o'z kasbini sevadi, ardoqlaydi va qadrlaydi ...

“Xalqimiz azal-azaldan  
Ona siyosini, Ayol  
zotini Yaratganning  
ulug' ne'mati, tengsiz  
mo'jizasi, deb biladi, uni  
hamisha ardoqlab-asrab  
yashaydi —  
Shavkat MIRZIYOEV.

Dunyo go'zalligi ayollar vasfi va ibosida bo'lgani kabi shifokor xotin-qizlarning ham oilada, ham faoliyatda o'rni nechog'lik ahamiyatli bo'layotganligini bir qarashdayoq anglash mushkul. Ammo, ayol ko'nglini topish, unga mehr-muhabbat ko'rsatish millatimizga xos bo'lgan olijanob fazilat ekanligini barchamiz yaxshi bilamiz.

Xotin-qizlar bayrami arafasida institutda faoliyat yurtayotgan mehnatsevar, tinib-tinchimas, oliyohning fayziga-fayz tarovatiga o'zgacha ruh bag'ishlab, qaynoq hayot quchog'ida mehnat qilayotgan munis ayollarimiz bilan suhbatlashib, ularga quyidagi savollar bilan murojaat qildik.

Vaqt siz uchun qanday ahamiyatga ega?  
Kasbingizni qanday ardoqlaysiz?  
Eng baxtiyor kunlar?



Muqaddas ASHUROVA —  
«Ovqatlanish, bolalar va  
o'smirlar gigienasi» kafedrasi  
mudiri, tibbiyot fanlari nomzodi,  
dotsent.

Umrni vaqt bilan o'lchaydilar. Ammo, uning tez o'tib ketishi insonni biroz shiddatliroq va harakatchan bo'lishga undaydi. Ana shu qimmatli vaqtidan juda unumli foydalananaman.

Ehtimol, umrimiz shunday tez o'tayotgandir, ehtimol vaqt shunchalik qimmatlidir. Lekin, qanday bo'lmasin, inson hammasiga ulgurishi, ko'zlagan maqsadiga erishish mumkin. Faqat unda to'g'ri reja, astoydil harakatchanlik bo'lsa bas.

Menda bir odat bor. Har kunlik umrimni sarhisob qilaman. O'zimga-o'zim savol beraman. «Bugun nima ishlar qila oldim, nimaga erishdim, ertaga nimalar qilmoqchiman»,

Kasbimni sevganim uchun shu sohaga qiziqish, intilish, mehrni oshirishga intilaman. Eng baxtiyor kunim bu albatta ona bo'lganim. Bu lahzalar bir umr xotiramga muhrlangan. Ish yoki oilada Qanday muammo bo'lishdan Qatoi nazar, uni atrofdagilarga bildirmay, mustaqil hal Qilishga urinaman va uddasidan chiqaman.

Ayollar va barcha xotin — Qizlarga bиринчи navbatda oilaviy baxt, ikkinchisi sog'liq, uchinchisi esa tinchlik-xotirjamlik tilayman. Dunyo go'zalligiga hissa qo'shayotgan xotin-qizlarimiz hamisha o'zlarini avaylab, oilalari baxtiga omon bo'lislari tilab qolaman.

Bayramingiz bilan aziz ayollar!



Institutda yoshlarga, ayniqsa,  
yosh olimlarga katta e'tibor  
qaratilmoqda. M.Ashurovaning  
sevimli talabalaridan biri  
Shohruxbek Umaraliyev.

U o'zining odobi, xulqi, mehnat-sevarligi, ilmsevarligi sifatida kelajakda yetuk mutaxassis kadr bo'lib yetishish uchun ijodkorlikqobiliyatlarini namoyon

qilib kelmoqda. Tibbiy profilaktika ishi yo'nalishi 5-kurs talabasi Sh.Umaraliyev o'tgan yillar mobaynida bir qator xalqaro va respublika ilmiy anjuman va konferensiyalarda o'zining ilmiy maqolalari bilan faol qatnashgan holda munosib sertifikatlar bilan taqdirlangan. Ayniqsa, 2020 yil O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta

Maxsus Ta'llim vazirligi tomonidan Oliy ta'llim muassasalarini talabalari o'rtasida o'tkazilgan Respublika fan olimpiadasida, shuningdek, 2021-yili o'tkazilgan "Ibn Sino izdoshlari" Oliy ta'llim tibbiyot muassasalarini onlayn Xalqaro talabalar fan olimpiadasida faxrli II-va III- darajali diplomlar bilan taqdirlangani e'tirofga loyiqdir.

*Suratda: M.Ashurova va shogirdlari Sarvinoz Xabibullayeva va  
Shohruxbek Umaraliyevlar tasvirlangan.*



Davomi 2-betda

Davomi. Boshi 1-betda

# Ayol o'z kasbini sevadi, ardoqlaydi va qadrlaydi ...



Vaqt siz uchun qanday ahamiyatga ega?  
Kasbingizni qanday ardoqlaysiz?  
Eng baxtiyor kunlar?



**Robiya KATTAXANOVA -  
"Ichki kasalliklar  
propedevtikasi" kafedrasi  
mudiri, tibbiyat fanlar  
nomzodi.**

**Hilola KARIMOVA,  
institut axborot-resurs markazi  
rahbari.**



Vaqt men uchun katta ahamiyatga ega. Chunki, buning orasida faoliyat, oila madaniy hordiq, do'stlar davrsasi, o'zaro fikrashishlar, shuningdek, mustaqil orzular ummoniga berilish va ko'zlangan maqsadga erishish uyg'un yotadi.

Inson yuqoridaq mujassamlikni berilgan vaqt mobaynida to'g'ri tashkil qila olishi kerak. Agar fikrni bir joyga joylab aytadigan bo'lsak, vaqt shu qadar g'animat ekanki, o'tgan vaqtini orqaga qaytarib bo'lmaydi. Demak, faoliyat oilam va do'stlarim davrsasi hamda muloqatlarim o'tayotgan vaqtim uchun mazmun bag'ishladi, desam yanglishmayman.

Nazarimda insonni baxtli eta oladigan yagona kuch-jamiyat va oilada o'z o'rnnini topa olishi, halol ishlab, insonlarga yaxshilik Qilishi hamda hurmatga sazovor bo'lishi deb hisoblayman.

Kasbim bilan faxrlanaman. Kutubxonamiz 35 ming nusxadan ziyyod kitob fondiga ega. Keng, yorug' markazda 40 o'rinni o'quv zali mavjud, elektron adabiyotlardan foydalanishga mo'ljallangan zalga 10 dan ortiq zamonaliv kompyuterlar o'rnatilgan. Umuman, bu yerda kitobxon talabalar va o'qituvchilar uchun zarur barcha sharoitlar yaratilgan. Bularning barchasi faoliyatimiz mezonini belgilab berdi.

Umrni oqar daryo deydi. Kechagina maktab, institut hovlisida kelajakda kim bo'lar ekanman, degan xayollar bilan yurgan bo'lsak, bugun qaysidir ma'noda u orzularimizga erishib turgandekmiz. Demak, inson umri ham shunday ko'z ochib yumguncha, qanchadan qancha davonlarni ortda goldirar ekan.

Inson doimo o'ziga «men bu hayotda nima qildim, kimga foydam, kimga yaxshiligm tegdi, qolaversa jamiyat uchun qanday salmoqli ishlar qila oldim?»-degan mazmundagi savollar bilan yuzlanishi kerak.

Dastlabki ish faoliyatimni oddiy shifokorlikdan boshlagan bo'lsam, keyinchalik bo'lajak tibbiyot xodimlariga bilim berish bilan bog'liq bo'ldi, desam yanglishmagan bo'laman.

Bu kasbni bekorga tanlamaganim va kimlar uchundir oz bo'sada foydam tegayotganligidan mammunligimni his etaman.

Kimlar uchundir baxt bu – oila, farzand, ota ona va sevgan kasbi. Men o'yaymanki, insonda ana shu topilmas xazinalarning bo'lishi yana bir katta baxtdir. Avvalo, shifokorlikni tanlaganimdan, oilam, farzandlarim

bilan birga bo'lganimdan juda baxtliman. Farzandlarim va umr yo'ldoshimning menga suyanchiq bo'lib turganidan baxtiyorman. Yana bir yagona baxt bu o'tayotgan umr va hayotning qadriga yetib yurish hamda o'z salomatligini ko'z qorachig'idek asray bilishdir.

Avvalo, insonda kasbga nisbatan qiziqish, intilish bo'lishi kerak. Qanday kasbda mehnat qilmang, sohangizni seva olsangizgina, sizni shunda jamiyat ardoqlab, e'tibordan aslo uzoqlashtirmaydi.

Yillar o'tib, oddiy shifokorlikdan bugun shifoxona bo'lim mudiri bo'lib ishlayapman. Tibbiyot muassasida ishlash, zaruriy buyruqlar va hujjatlarni mukammal o'rganib borish hamda malakamni oshirib borishga harakat qilayapman. Demak, insonning kasbi qaysidir ma'noda uni ham ma'nan, ham ruhan tarbiyalashga xizmat qilar ekan. Shuning uchun bo'lsa kerak, kasbimni hayotim deb bilaman.

O'zbek ayoli eng go'zal, sabr-toqatli, har qanday vaziyatda ham oilasini baxtli qila oladigan darajadagi kuch-qudratga ega. Shuning uchun ayollarga tilagim, hamisha go'zal fazilatlarga munosib bo'lib yuringlar.

**Bahor bayramingiz muborak  
bo'lsin, azizlar!**



**«O'tayotgan har bir kunimiz va orzulagan rejalarimiz muvaffaqiyatli bajarilayotgani bu baxtimiz, istiqlolimiz sharofatidir. Hammamizning baxtimizga onajonlarimiz, opasingillarimiz omon bo'lishsin. Ularni bahoriy go'zallik tark etmasin».**

*Suratlar muallifi M.Qodirov.*





*Tahlil*

# NEGA SHIFOKOR AYOLLAR KAM?

Kuni kecha ijtimoiy tarmoqlarda Toshkent viloyatida yashovchi erkak onasiga yordam berish uchun kelgan "tez yordam" feldsherini kaltaklagani haqidagi xabar tarqaldi.

Voeaga ko'ra, o'z uyida yiqilib tushib, tan jarohati olgan bemorga shifokor tomonidan birinchi tibbiy yordam ko'rsatilayotgan vaqtida o'g'li ayol hamshira kelmagani uchun to'polon ko'targan. Shunga qaramay, tibbiyot xodimlari xizmat vazifasini bajarib, onani shifoxonaga olib borgan. Bemorning o'g'li u yerda ham janjalni davom ettirib, feldsherga tan jarohati yetkazgan.

Afsuski, hayotimizda bunday voqealarga ko'p bora guvoh bo'lyapmiz. Oramizda "Xotinimni faqat shifokor ayolga ko'rsataman", deya tibbiyot maskanlari aro sarson yurgan erkaklar qancha? Shifokor ayollar yetishmasligidan joni zirqarab og'risa-da, o'z bilganicha, davolanayotgan dard-mandlarchi?

Yaqinda bir dugonam oyog'da vena qon tomirlari kengayishi (varikoz) kasalligi aniqlangani, og'riq kundan-kunga

kuchayayotgani, eri uni davolatish uchun ayol jarroh izlab topolmayotgani haqida ayitib qoldi.

Shu'rinda haqli savol tug'iladi: Farg'ona viloyatida shifokor ayollar yetarlimi?

- Faoliyatim davomida bemorning yaqinlari tomonidan ayol shifokor so'rab, janjal qilganlarni ko'p ko'rganman. Va bu holatni umuman oqlamayman, - deydi "Madad shifo" klinikasi shifokori Gulnoza Ravbaeva. - Chunki oq halat kiydimi, erkak ham, ayol ham o'z burchini - shifokorlik vazifasini bajaradi. Klinikamizga UZiga yoki kardiologga kelganlar borki, dastlab, "Iyi, shifokor - erkakmi? Ayol doktor yo'qmi?" degan savolni berishadi. Avval ham tabiblar faqat erkaklar bo'lgan-ku. Ginekologiyani bitirgan erkak hamkasblarimning ayrimlari shunday xunuk munosabatlardan so'ng tibbiyotning boshqa sohalarida qayta o'qiganlariga ham guvoh bo'ldim. Lekin shifokor qaysi jins egasi bo'lishidan qat'iy nazar, bemorning hayotini saqlab qolish uchun kurashadi. Unga boshqa narsalar ahamiyatsiz.

Qirq yildan buyon tibbiyotning praktologiya sohasida mehnat qilib kelayotgan shifokor Hamidulla Xabibullaevning aytishicha, viloyat bo'yicha 4 nafar praktolog ayollar faoliyat yuritadi. Afsuski, bu ko'satkich juda past. Ayollarda ko'proq tug'ruqdan so'ng praktologga ehtiyoj oshishini hisobga oladigan bo'lsak, shu soha bo'yicha ayol shifokorlarga talab katta.

**Viloyatimizda ayol jarrohlar ham yetishmaydi. Buning sababini shifokorlardan so'raganimizda, quyidagicha javob oldik: "Ayol kishi xirurgiya sohasini tanlashda ko'p narsalardan voz kechishi kerak. Misol uchun, operatsiya kechki paytga belgilangan bo'lsa, tungi navbatchilikka qolish kerak bo'ladi. Ayrim hollarda, uyda bo'lishmaydi ham. Ikkinchidan, bu juda murakkab jarayon. Nafaqat ilm, balki jismoniy kuch ham talab qiladi. 5-10 soatlab tik oyoqda operatsiya jarayonlarini o'tkazish quvvat, sabr-bardosh va iroda talab qiladi".**

buzilgan.

- Viloyatimizda 411 ta tibbiyot muassasasi mavjud, ularda 7205 nafar shifokorlar ishlaydi. 2957 nafari ayollar, - deydi viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi mutaxassisni Xalimjon Yoqubov. - Sohadan 216 nafar xirurg bo'lsa, ularning 16 nafari ayollar.

Yana bir ma'lumot, biroz eskiroq bo'lsa ham e'tiborlaringga havola qilmoqchimiz, 2020 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, respublika bo'yicha jami shifokorlar soni 91,9 ming nafarni tashkil etgan. Shundan ayol shifokorlar soni 44,3 ming nafar (jami shifokorlarga nisbatan 47,7 foiz)ni tashkil qilgan.

Hatto oliy ta'limdagи vaziyat ham biroz xavotirli. Masalan, Farg'ona jamoat salomatligi institutida umumiyl talabalar soni 3743 nafarni tashkil etayotgan bo'lsa, ulardan 1 641 nafari qizlar ekan. Bundan chiqdi, 2 ming nafardan ortig'i o'g'il talabalar.

## HORIJDA VAZIYAT QANDAY?


Ma'lumotlarga ko'ra, Rossiya davlatida 608,5 ming shifokorning 69,5 foizi ayollar va faqat 29,5 foizi erkak shifokorlardir.

"Nippon" nashrining yozishicha, Yaponiyadagi ayol shifokorlar ulushi o'rtacha 44,8%. Buyuk Britaniya 47,2 foiz bilan yetakchilik qilmoqda, Germaniya (44,5 foiz), Fransiya (43,6 foiz), Kanada (40,6 foiz) va Italiya (39,8 foiz).

Tibbiyot sohasida ayol kadrlar tanqisligi aslida yechilmaydigan muammo emas. Bu hamyurtlarimizning o'z qolidagi masala. O'sha ayol shifokor izlab yurganlar qizlarini mazkur sohada o'qitsalar kifoya.

Aytmoqchi bo'lganimiz ham shu, nega o'zimiz ayol shifokor qidiramiz-u, ammo qizlarimizni, singillarimizni shifokor bo'lishga targ'ib qilmaymiz?

G.OXUNOVA



Stomatologiya sohasida ham holat shu. Bemor bilan 10-15 santimetrlar masofa yaqinlikda davolash ishlarini olib boradigan stomatologlar orasidan ayollarni qidirib topish ham ancha muammo.

- Bo'limizda yil davomida 1045 nafar ayol davolangan bo'lsa, shularning 614 nafarida jarrohlik amaliyoti bajarilgan. Uning 80 foizi yangi texnologiya asosida laposgrafik usulda bo'lgan, - deydi Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Farg'ona filiali shoshilinch ginekologiya bo'limi boshlig'i Nargiza Turonova.


Shundaylikka-shunday, ammo shifokorlar orasida gender tenglik

## E'tirof

## ILMIY DARAJA MUBORAK AZIZ USTOZLAR!

Institutimizning bir qator ustozlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasi tomonidan taqdim etilgan diplomlarni qo'liga kiritib, ilmiy darajaga ega bo'lganliklari munosabati bilan taqdirlardilar.

Oliyoh jamoasi ustozlarni bu kabi yutuqlar bilan muborak etib, kelajakdagisi ishlariga muvaffaqiyat va zafarlar tilab qoladi!



**ERGASHEVA Shaxlo  
Po'latovna —**

"Tibbiy ta'limga talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kommunikativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi" mavzusidagi 13.00.02 – Ta'limga tarbiya nazariysi va metodikasi (tibbiyot) (pedagogika fanlari) ixtisosligi bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olishga muvaffaq bo'ldi.



**NASIRDINOV Mavlonjon  
Ziyomiddinovich —**

«Temir tanqisligi kamqonligi bo'lgan o'quvchilarni mahalliy o'simlik mahsulotlari bilan davolash samaradorligini optimallashtirish» mavzusidagi 14.00.07-Gigiyena ixtisosligi bo'yicha (PhD) ilmiy darajasini oldi.



**ISMOILOVA Muazzamxon  
Isroilovna —**

"COVID-19 o'tkazgan bermorlar ichaklarining funksional holati va mikroflorasini o'rganish, hamda davolashni muvofiqlashtirish" mavzusida 14.00.05—"Ichki kasalliklar" ixtisosligi bo'yicha tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi egasi bo'ldi.

## JAMOAT SALOMATLIGI

MUASSIS:  
Farg'on'a jamoat salomatligi tibbiyot instituti

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va omaviy kommunikatsiyalar agentligi Farg'on'a viloyati hududiy boshqarmasi tomonidan 6-sentabr 2021-yil №12-132 raqam bilan ro'yxatga olingan.

BOSH MUHARRIR:  
**Akmal SIDIKOV**

NASHR UCHUN MAS'UL  
**I.ABDUJABBOROV**  
Qog'oz bichimi: A-3  
Oyda bir marta o'zbek tilida chop etiladi

TAHRIRIYAT MANZILI:  
150105, Farg'on'a shahar,  
Yangi Turon ko'chasi, 2-uy

Tel.: (73) 243-06-62  
(94) 444-91-76

[fmioz@mail.ru](mailto:fmioz@mail.ru)

fjsti.uz



GAZETA BEPUL  
TARQATILADI

Gazeta «ZAKOVAT NASHRIYOT UYI» MCHJ bosmaxonasida ofset usulida chop etildi.

**BOSMAXONA MANZILI:**  
Kosonsoy shahri, Chorbog' ko'chasi, 17-uy.  
Bosmaxonaga 27.02.2023 yil, soat 16 00 da  
topshirildi. Topshirish vaqt: 17:00

Buyurtma: Adadi: 500

# TAJRIBA: Nur kasalligini davolashda shifobahsh damlamalarning o'rni

Bevosita nurlanish ta'sirida hujayra fermentlari, nukleoproteidlar, xromosomalar, bilvosita ta'sir tufayli suv radiolizi mahsulotlaridan to'qimalar zarar ko'radi. Hujayra va to'qimalarning nurlanishga naqadar sezgirligi ularning faolligiga bog'liq. Hujayralar qanchalik tez mitotik yo'l bilan bo'linib ko'paysa, ularning nurlanishga sezgirligi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Limfold va mieloid to'qimalar nurlanishga eng sezgir to'qimalar hisoblanadi. Yuqori dozada nurlanish natijasida suyak ko'migida qon tanachalarining hosil bo'lishi umuman to'xtashi mumkin va qonda leykositopeniya, trombotsitopeniya erta rivojlanadi. Bu esa o'z navbatida infeksion va gemorragik sindromlarning rivojlanishiga sabab bo'ladi.

1 Greydan 10 Greygacha nurlanishga limfold va mieloid to'qimalar eng sezgir to'qimalar xisoblanadi. Terapeutlar uchun suyak iligidagi o'zgarishlar bilan kechuvchi nur kasaligini o'rghanish ahamiyatlidir.

Tajribada 2-3 oylik oq naslli birinchi guruh sog'lom, ikkinchi nur ta'sir ettirilan, uchinchi guruh tabiiy shifobaxsh o'simlik damlamalari ta'sir ettirilan sichqonlarda o'tkazildi. Shu uchala holat bo'yicha sichqonlarning eritrosit, leykosit va taloqning yadro saqlovchi hujayralari soni aniqlandi, antitana hosil bo'lishi serologik usullar yordamida tahlil qilindi.

Tajribada nur kasalligi keltirib chiqarish natijasida, chuqur immunotanqislik holati yuzaga kelishi va antigenga nisbatan antitana hosil bo'lishi kamayganligi kuzatildi. Immuntanqislik holatidagi hayvonlar guruhiga shifobaxsh o'simlik damlamasi ta'sir ettirilganda immun tizimini hujayralarining ko'paytirishi kuzatildi.

Hayvonlarda nur kasalligi yuzaga keltirish oqibatida chuqur




immuntanqislik holati yuzaga kelishi va antigenga nisbatan antitana hosil bo'lishi kamayganligi kuzatildi. Immuntanqislik holatidagi sichqonlarga shifobaxsh damlama yuborilganda antitana hosil bo'lishi jarayoni ko'tarilishi kuzatildi. O'simlik preparatlari nurlangan hayvonlarning qonida eritrosit, leykosit va taloqning yadro saqlovchi hujayralari soni sezilarli darajada oshganligi aniqlandi.

Demak, nur kasalligini zamonaviy davolash usullari bilan birgalikda zanjabil, papayya, lavanda, guava barglari, topinambur kabi shifobahsh damlamalarni tavsiya etish bemorning tuzalishiga yordam berishi mumkin.

**F. RASULOV, kafedra mudiri,  
E.AKRAMOV, klinik ordinatori.**

## TISHLARNI SOG'LOM ASRASH, KARIYES VA PROFILAKTIKA



Dunyo bo'ylab maktab yoshidagi bolalarning 60-90% va kattalarning deyarli 100% tish kariyesiga ega. 65-74 yoshdagi odamlarning taxminan 30 foizida tabiiy tishlari yo'q.

Sog'lom tishlar, avvalo, organizm salomatligidan darak beruvchi belgi hisoblanadi. Tishlar chaynov jarayonining boshlang'ich bo'g'ini hisoblanib, so'lak

fermentlari yordamida ovqat luqmasini hazm jarayoni uchun tayyorlab berishi bilan ham ahamiyatlidir. Sog'lom, tishlar insonga husn va chiroyli tabassum hadya etadi.

Tishlarni sog'lom va uzoq vaqt saqlanishi, avvalo, og'iz bo'shlig'i gigiyenasi qoidalariga to'liq va doimiy ravishda e'tibor berishga bog'liq. Shuningdek, yilda 2 marotaba stomatolog shifokor nazorat ko'rigidan o'tish tavsiya etiladi.

Bundan tashqari, bu borada targ'ibot ishlarini dastavval pedagoglar, tarbiyachilar hamda tibbiyot xodimlarini jalg qilishdan boshlash maqsadga muvofiq. Bolalar jamoasida ishlaydigan ushbu xodimlar keyinchalik sanitariya va profilaktika ishlarini olib borishda stomatolog shifokorning asosiy yordamchilariga aylanadi. Targ'ibot jarayonida ota-onalar bilan uchrashib, ularga kasalliklarning oldini olish mumkinligi va uning ahamiyati juda kattaligini tushuntirish, tish va milk kasalliklarini oldining olish uchun tish pastalari va malhamlar yordamida muntazam yuvib turish qanchalik muhimligini uqtirish lozim.

Tish kariyesining yuzaga kelishi bir qancha omillarga bog'liq.

-og'iz bo'shlig'i gigiyenasing pastligi, -so'lak qovushqoqligining ortishi, -ovqatlanish tarkibi va tartibi, -iqlim va geografik sharoitlar, -yondosh kasalliklarning mavjudligi asosiy omillardan hisoblanadi.

Davolash mahalliy, ya'ni shifokor stomatolog qabuliga murojaat etgan holda tish nuqsonini plombalash orqali va umumiylar organizmni nospesifik rezistentligini oshirish, so'lak bezlar faoliyatini stimullash, ovqatlanish

ratsionini me'yorlashtirish orqali amalga oshiriladi.

**BOLA TISHLARINI  
KARIYESDAN QANDAY HIMoya  
QILISH MUMKIN?**

Ovqat goldiglari chaynov yuzasi yoki tish bo'yin qismlarida yig'ilib qolib, tishlar yuvilganida ular tishning tabiyyi chuqurchalarida qolib ketadi. Ma'lum vaqt o'tib esa tish emalini chiritadi, bu kariyesning boshlanishidir. Ota-onalbo laning tish yuvishini o'z nazoratiga olishi lozim.

Sut tishlarida erta boshlangan kariyesni davolashda kumushlash amaliyoti keng qolilanadi. Ma'lum foizdagi kumush eritmasi tish yuzasiga surtiladi va bu kariyesning to'xtashiga xizmat qiladi. Ammo kumushlashdan so'ng tish emali biroz qorayib qolishi mumkin. Kariyes aniqlangach, bola har olti oyda bir marta stomatolog ko'rigidan o'tib turishi kerak. Agar tish kariyesi kattalashib borsa, qo'shimcha ravishda kumush nitrati surtiladi.

Bola sut tishlariga qo'yiladigan plombalarning bir nechta turi bor. Tish nervi olinganidan so'ng qo'yiladigan plomba tish ildiz kanalining doimiy tishga almashtuniga qadar xizmat qiladi. Tish toj qismiga qo'yiladigan plomba ovqatlanish paytida xalaqit bermaydi va doimiy tishlar almashtuniga qadar yetib beradi. Agar plomba yaxshi turgan bo'lsa, uni almashtirish talab etilmaydi. Plomba tushib qolmaguncha undan foydalab yuraversa bo'ladi.

**Alina ABDIEVA,  
Xalqaro fakultet, 321-guruh.  
Stomatologiya yo'nalishi  
2- kurs talabasi.**